Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

AKADEMIK ABDULAHAD MUHAMMADJONOV FAOLYATIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MASALASI

Baxritdinov Jasurbek Mirzabek o‘gli
Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti.
e-mail: jasurbaxritdinov019@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada akademik olim Abdulahad Muhammadjonovning ilmiy-merosi va uning o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Olimning O‘zbekiston tarixi, etnogenezi, davlatchilik an’analari, madaniy meros hamda tarixiy manbalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy ishlari asosida milliy ong va tarixiy xotirani shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Muhammadjonovning ilmiy qarashlari orqali yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrash va tarixiy merosga nisbatan mas’uliyat hissini kuchaytirish masalalari ochib beriladi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Maqola natijalari akademikning ilmiy faoliyati milliy o‘zlikni anglash va jamiyat ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlik, tarixiy xotira, Abdulahad Muhammadjonov, milliy qadriyatlar, etnogenez, davlatchilik, ma’naviy meros, vatanparvarlik.

Аннотация: в данной статье анализируется научное наследие академика Абдулахада Мухаммаджанова и его роль в процессе формирования национального самосознания узбекского народа. На основе научных трудов учёного, посвящённых истории Узбекистана, этногенезу, традициям государственности, культурному наследию и изучению исторических источников, раскрывается их значение в формировании национального сознания и исторической памяти. Также рассматриваются вопросы укрепления патриотических чувств у молодого поколения, сохранения национальных ценностей и повышения ответственности за историческое наследие через призму научных взглядов Мухаммаджанова. В исследовании использованы методы историзма, сравнительного анализа и системного подхода. Результаты статьи свидетельствуют о том, что научная деятельность академика является важным фактором в осознании национальной идентичности и обеспечении духовного развития общества.

Ключевые слова: национальное самосознание, историческая память, Абдулахад Мухаммаджанов, национальные ценности, этногенез, государственность, духовное наследие, патриотизм.

Tarixiy tafakkur mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi hisoblanadi. “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Demak, tarixiy tafakkurning shakllanishi eng avvalo tarixchilar, ilm-ma’rifat ahli, mustaqil falsafiy mushohadaga moyil ijodkorlarning tarixiy, obyektiv ochib berishiga bog‘liqdir. “O‘zlikni anglash, eng avvalo, o‘tmishni o‘rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi, – deb yozadi N. Jo‘rayev,

[1]Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 288.

– Darhaqiqat, o‘zini anglayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o‘z ajdodlari kim bo‘lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug‘ullanishgani va qanday umr kechirishganini bilishga intiladi. Ularning fazilatlari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi”[2].Tarixiy tafakkur madaniyatining milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyatini tadqiq etish jarayonida bir qator o‘zbek tarixshunoslari, tarixiy tafakkur madaniyati muammolari bilan shug‘ullanib kelganlar. Shunday yirik olimlardan biri professor, tarix fanlari doktori, akademik A. R. Muhammadjonov hisoblanadi. A.R. Muhammadjonov ilmiy me’rosi juda serqira va rang barang hisoblanadi. Olimning “Temur va temuriylar saltanati”[3], “Amir Temur”[4], “Qadimgi Toshkent”[5], “Tarix falsafasi – ma’naviyat ko‘zgusi”[6] kabi bir qancha tadqiqotlari, yoshlarimizda tarixiy tafakkurni shaklantirish, uning tarixiy ildizlarini o‘rganish masalalariga qaratilgan. A.R.Muhammadjonov ta’kidlaganidek, “Xalqimizda jonlangan o‘zligini anglash va milliy uyg‘onish hissini rivojlantirish, tariximiz va uning boy qadriyatlarini, ota-bobolar ruhiga sadoqat, moddiy-ma’naviy madaniyatga bo‘lgan mehr, hurmat va qadr-qimmat, milliy g‘oya va milliy tafakkurga asoslangan mustaqillik mafkurasi his-tuyg‘ularini boyitib, yosh ongiga singdirish ijtimoiy fanlar oldida turgan asosiy va nihoyatda dolzarb masala sifatida kundalik hayotimizning mazmunini anglatmoqda”[7].

A.Muhammadjonov sharqshunos olim sifatida ham ilmiy jamoatchilikka ma’lum. Uning Ibn Arabshohning “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur”, Ibn Xaldunning “Tarjimai hol”, Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi”, Fasih Ahmad Havofiyning “Mujmali Fasihiy”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlariga tayanib Amir Temur shaxsiga bergan ta’riflari muhim axamiyatga ega hisoblanadi. A.R.Muhammadjonovning Amir Temur va uning vorislari saltanati xaqidagi tadqiqotlari, Movarounahr va Xuroson yerlarida birlashgan markazlashgan, kuchli va mustaqil davlat tarixining ayrim lavhalariga bag‘ishlangan. Olim bu asarlarida XIV asrning oxiri va XV asr boshlarida Movarounahr va Xurosanda amalga oshirgan bir qator bunyodkorlik ishlariga alohida to‘htalib o‘tadi, jumladan: 1) XIV asrning II yarmi va XV asr boshlarida Amir Temur tomonidan vatanimizda yagona bayroq ostida birlashgan markazlashgan, mustaqil, kuchli, jahonning buyuk imperiyalari darajasiga ko‘tarilgan yirik davlatning tashkil topishi; 2) Davlatining kuch qudratini oshirib maqsadida amaga oshirilgan harbiy va iqtisodiy islohatlar; 3) Davlatchilik taraqqiyoti va davlat boshqaruv tizimining harbiy startegiyasi (savquljaysh) va taktika (tarbiyatul jaysh)ni ishlab chiqilishi. Davlatini idora etishda islom dini mafkurasi va ahkomlariga asoslangan, boshqaruv tizimining asosiy qonun qoidalari – “Tuzuklarlar”ning yaratilishi; 3) Amir Temur davlatining tashqi siyosati, xususan uning Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon, turk sultoni Yildirim Boyazid, Hindiston, O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari (Eron, Ozarboyjon, Iroq, Suriya) ga qilgan harbiy yurishlar va ularning tarixiy ahamiyati; 4) Morvarounnahr va Xuroson shaharsozligining (Samarqand, Buxoro, Kesh, (Shahrisabz), Toshkent, Shohruhiya (Banokat), Termiz va boshqa) yangi bosqichga ko‘tarilishi. Shaharsozlik me’morchiligining rivoji, mahobatli binokorlik, saroy, masjid, madrasa, xonaqo, maqbara, hammom, karvonsaroylar kabi

[2]Ҳўраев Н. Ж. Тарих фалсафаси. – Тошкент: “Маънавият”, 1999.– 488 Б.

[3]Мухамеджанов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. (тарихий очерк). “Қомуслар бош тахририяти”. – Тошкент. 1994. – 157 Б.

[4]Муҳаммаджонов А.Р., Ражабов Қ. Амир Темур (Тарих ва шахс). – Тошкент: “Ўзбекистон” 2013. – 160 б.

[5]Мухамеджанов А.Р. Қадимги Тошкент. (Тарихий ва археологик лавҳалар) – Тошкент. Шарқ. 2009. – 61 б.

[6]Мухамеджанов А. Р. “Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси”. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2015, – 272 бет.

[7]Мухамеджанов А. Р. “Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси”. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2015, – 272 бет.

yangi hashamatli binolarning qad ko‘tarishi; 5) Mamlakat axolisi turmush darajasining ko‘tarilishi, obodonchilik ishlari, yangidan barpo etilgan yirik sug‘orish tarmoqlari va turli suv inshoatlari yordamida sug‘oriladigan, Ibn Arabshox tilga olgan “ul – Elam”, “Ziynat ud – Dunyo”, “Jannat ul – Firdavs”, “Bo‘ston ush – Shimol” kabi o‘nlab bog‘-rog‘lar barpo etilishi; 6) Movarounnahr poytaxti Samarqand, hamda Kesh, Buxoro, Xuroso markazi Hirotda olimlar, shoiru-ijodkorlar to‘planib, ilm-fan va san’atning ravnaqi. Madrasalarda ilohiyot ilmlari bilan birga riyoziyot, handasa, tibbiyot, ilmu ha’at, ilmu aruz, tarix, falsafa kabi dunyoviy bilimlar rivoji. Samarqandda rasadxona qurilishi va o‘z davrining “Dor ul-ilm” – akademiyasida, matematika va astronomiya fanlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Miram Chalabiy, Ali Qushchi kabi buyuk olimlarning ijod qilishi; A.Muhammadjonov o‘z asarlarida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish g‘oyalariga muhim o‘rin ajratadi.

Olim “Turon zamini – buyuk tarixiy diyor” fikrini asoslab ochib berishda tarixiy manbalarga murojat qilar ekan, asosini “tur” yoki “tura” so‘zlari tashkil etuvchi “Turon pasttekisligi” va “Turon” geonimi yer yoki tuproqga oid ma’noni bildirgan deb ko‘rsatadi. Dehqonchilik uchun qulay pasttekislik, chorvachilik uchun keng va yam-yashil yaylovlarga boy bo‘lgani uchun bu o‘lkaga “Turon” nomi berilgan, o‘lkaning tabiatiga monand bo‘lgan bu oronim “tekislik”, “sayxonlik”, “dashtlik” va “yozyovon” (ya’ni dalayu dasht) ma’nolarini anglatuvchi nom degan xulosaga keladi.

Shubhasiz, olimning bu asarlari, Vatanimiz tarixining yorqin sahifasi bo‘lgan davr tarixini chuqur o‘rganish, tahlil qilish, undan saboq olib hayotga tatbiq etish orqali, har bir yosh ongida mustaqillik davri miliy mafkurasining shakllanishi, haqqoniy tarixiy tafakkurning shaklanishida muhim ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Asar o‘quvchisida, qadim Turon va Turkiston diyorining voqealarga boy, chuqur tarixiy ildizlarini his qilish orqali, ko‘nglida miliy g‘urur va iftihor tuyg‘ularini shakllantiradi, miliy mustaqillikning ahamiyatini anglaydi. Bu asarlar, xalqimiz tafakkurida, o‘zlikni anglash va milliy uyg‘onish hissini rivojlantiradi, tariximiz va uning boy qadriyatlari, ota-bobolar ruhiga sadoqat, moddiy-ma’naviy madaniyatga bo‘lgan mehr, xurmat va qadr-qimmat, milliy qadriyatlarimizga xurmat ruhidagi tarixiy dunyoqarashni paydo qiladi.

A.Muhammadjonovning “Tarix falsafasi – ma’naviyat ko‘zgusi” asarida, ma’naviyatimiz ko‘zgusi – tariximiz jilosida namoyon bo‘lgan shahar va qishloqlar, mahallalar nomlari va ularga doir tarixiy atamalar hamda xalqimizning hamdo‘stligi va borlig‘ining ma’naviy poydevori bo‘lgan azaliy qadriyatlar – hashar va to‘y-marakalarning paydo bo‘lishi va ularning hayotdagi tarbiyaviy ahamiyati haqida tarixiy ma’lumotlarning batafsil va keng talqiniga asoslanib yozilgan ijod ma’suli hisoblanadi. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli tariximiz va uning sarchashmasi – moddiy madaniyatga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Davlatimiz tomonidan tarixiy qadriyatlarga xalqimiz ma’naviy kamolotining poydevori sifatida baho berilib, ularni ilmiy jihatdan keng va chuqur o‘rganish, yosh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashdek o‘ta zarur va muhim masalaga katta ahamiyat berilmoqda. Keyingi yilarda bu borada qator xalqaro ilmiy anjumanlar va yubileylar (Samarqand shahrining – 2750; Shahrisabz (Kesh), Qarshi (Naxshab) shaharlarining 2700 yiligi) o‘tkazildi. Amir Temur, Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi, Imom Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Moturidiy, Marg‘inoniy, G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband va Kamoliddin Behzod kabi o‘rta asr daholarining tariximizda tutgan o‘rni va faoliyati hamda ma’naviy me’rosini o‘rganish borasida muhim tadbirlar o‘tkazildi. Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi keng nishonlandi. Qator ilmiy va ma’rifiy-ommabop kitob va risolalar nashr etildi. Mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrining 2200 yiligi nishonlandi. A.Muhammadjonov o‘z asarlarida “Tarix xalq ma’naviyatining asosidir” deb bejizga aytmaydi. Olimning ilmiy me’rosida tarixiy tafakkur masalasi aloxida o‘rin egallaydi. Xususan ustoz, “Tarix falsafasi – ma’naviyat ko‘zgusi” asarida tarixi manbalarni qiyosiy o‘rganish asosida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, milliy ruh va tarixiy ongini rivojlanishining ijtimoiy-madaniy negizlari ochib berishga harakat qiladi[8].

[8] Мухамеджанов А. Р. “Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси”. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2015, – 272 бет.

Mazkur maqolada akademik Abdulahad Muhammadjonovning O‘zbekiston arxeologiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi, uning sug‘orish inshootlari tarixini o‘rganishdagi ilmiy faoliyati, Buxoro arxeologiya maktabining shakllanishidagi o‘rni hamda milliy o‘zlikni anglash masalalariga doir ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Abdulahad Muhammadjonov O‘zbekiston tarixiy-arxeologik merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan va mamlakat arxeologiya fanining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning ilmiy faoliyatida qadimgi sug‘orish tizimlari va gidrotexnika inshootlari tarixini o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. Olim arxeologik va yozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida O‘zbekiston hududida qadimdan rivojlangan sug‘orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu tadqiqotlar Markaziy Osiyoda irrigatsiya tarixini o‘rganishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, olim faoliyatida milliy o‘zlikni anglash masalasi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lganligi aniqlandi. Abdulahad Muhammadjonov o‘z asarlarida xalqning tarixiy xotirasini tiklash, milliy qadriyatlarni asrash va tarixiy merosni o‘rganish orqali milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini ilgari surdi. U tarixiy manbalar va arxeologik materiallar asosida o‘zbek xalqining uzoq va boy tarixga ega ekanligini ilmiy dalillar bilan asoslab berdi. Bu esa mustaqillik davrida milliy tarix konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, akademik Abdulahad Muhammadjonovning arxeologiya sohasidagi ilmiy faoliyati O‘zbekiston tarix fanining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Uning sug‘orish inshootlari tarixiga oid tadqiqotlari, Buxoro arxeologiya maktabini shakllantirishdagi xizmatlari va milliy o‘zlikni anglash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Olimning ilmiy merosi nafaqat tarix va arxeologiya fanlari uchun, balki O‘zbekistonning madaniy va ma’naviy taraqqiyoti uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 288.
2. Жўраев Н. Ж. Тарих фалсафаси. – Тошкент: “Маънавият”, 1999.– 488 Б.
3. Мухамеджанов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. (тарихий очерк). “Қомуслар бош тахририяти”. – Тошкент. 1994. – 157 Б.
4. Мухамеджанов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. (тарихий очерк). “Қомуслар бош тахририяти”. – Тошкент. 1994. – 157 Б.
5. Муҳаммаджонов А.Р., Ражабов Қ. Амир Темур (Тарих ва шахс). – Тошкент: “Ўзбекистон” 2013. – 160 б.
6. Мухамеджанов А.Р. Қадимги Тошкент. (Тарихий ва археологик лавҳалар) – Тошкент. Шарқ. 2009. – 61 б.
7. Мухамеджанов А. Р. “Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси”. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2015, – 272 бет.
8. Мухамеджанов А. Р. “Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси”. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2015, – 272 бет.